BADIIY ONIMLARNING LINGVOSTILISTIK HAMDA KONNOTATIVLIK XUSUSIYATLARI

Baxtiyorova Maftuna Baxtiyorovna

Annotatsiya: Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda tilni o‘rganishda integrativ yondashuvdan foydalaniladi. Binobarin, ko‘pgina hollarda ob’ektiv tadqiqot natijalarini olish uchun turli fanlarda erishilgan natijalarni sintez qilishga to‘g‘ri keladi. Shunday ekan, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda sof lingvistik ma’lumotlardan tashqari, sarhaddosh turli fanlar erishgan natijalardan ham foydalaniladi.

Key words: Kognitiv, konnotativ, onomastikon, lingvodidaktik.

Onomastikonlarni kategoriyalashtirish jarayonida inobatga olinadigan xususiyatlardan biri konnotativlik kategoriyasidir. Ma’lumki, har bir til belgisi axborot uzatish bilan bir qatorda, tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish vazifasini ham bajaradi. Shu jumladan, onomastikonlar ham biror bir emotsional baho mazmunini ifoda etish qiymatiga egadir. Masalan, quyidagi holatlarda onomastikonlar faqat mantiqiy xabar tashuvchi vazifasini o‘tayotganligini kuzatamiz: – *To‘lqin beshikchi ustaga gapirayotgani bilan ko‘zlari katta ko‘cha tomonda edi: ana, zira sotuvchi bola ko‘rindi. To‘lqin unga kuzatuvining birinchi kunidayoq e’tibor bergan edi. U yo‘l chetida to‘xtagan mashinaga ildam yaqinlashadi. Ko‘zlari javdiraydi. Bozorga kiraverishdagi gumbaz yonida esa uch yigitcha o‘tiribdi. To‘lqinning gumoni shularda.* (Said Ahmad: 3).

Boshqa holatlarda esa onomastikonlar mazmuni emotsional-baho bo‘yoqlari bilan boyiganligini ko‘ramiz: – *Faye was the motherly type… She was a bosom to cry on, a soother and a stroker”, Faye, the essence of motherness, began to think of Kate as her daughter”* (Steinbeck: 220, 223).

Til birliklarining lingvodidaktik xususiyatlarini maxsus o‘rgangan S.G.Ter-Minasova ularning alohida kategorial belgilarga ega ekanligini e’tiborga olish muhimligini uqtiradi. Olimaning ta’kidlashicha, konnotativlik, ya’ni axborot tashish bilan birgalikda, emotsional ta’sir o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lish ularning vazifaviy va semantik mohiyatini belgilaydi [Тер-Минасова: 82-83]. Fikrimizcha, ushbu berilgan ta’rif til birligi sifatida onomastikonlarga ham tegishli bo‘lib, ularning konseptual to‘laqonlilikka ega bo‘lishi, ya’ni ma’nosining ma’lum mantiqiy struktura – mazmunga mos kelishi ularning nominativ funksiya bajarishidan guvohlik beradi.

Tadqiqotchilar, onomastikonlarning nominativ vazifa bajarishini e’tirof yoki inkor etishlaridan qat’i nazar, ushbu birliklar voqelikdagi predmetlarni yoki ular haqida tug‘ilgan tasavvurni tafakkur jarayonida tug‘iladigan tushunchalar vositasida bevosita ifoda etishini qayd etadilar. Aslida, tushunchaning o‘zi predmet-hodisalarning asosiy farqli belgilarini umumlashtirish orqali yuzaga keladigan yaxlit psixologik obraz, konseptual birlikdir.

Til birliklari sifatida onimlar quyidagi muhim funksiyalarni bajaradilar: nominativ, identifikatsiyalovchi va differensiatsiyalovchi. Aytib o‘tilgan asosiy funksilardan tashqari olimlar quyidagi ikkinchi darajali funksiyalarni ham ajratib ko‘rsatadilar; ijtimoiy, hissiy, kumulyativ, “qatorga kiritish” funksiyasi, ekspressiv, estetik, stilistik.

Material (moddiy) g‘oya bo‘lib, onim har doim ham izohlab bo‘lmaydigan va aniq mazmuniy o‘qilishi mumkin bo‘lmagan ichki mazmuniga ega. Atoqli otning ramziyligi va jumboqliligini, xalqda atoqli otning afsonaviy kuchiga, uning o‘z sohibi taqdirini oldindan belgilab berish qobiliyatiga ishonch mavjudligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etib o‘tilgan. Bu bilan atoqli otga bo‘lgan onomastika va onomasiologiyaning zamonaviy

antroposentrik yo‘naltirilgan tilshunoslik formatida nafaqat pasaya borayotgan, balki aksincha qayta kuch bilan qo‘zg‘algan qiziqish bilan izohlanadi, zero tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy bosqichi uchun xos bo‘lgan antroposentrik yondashuv onimlarni o‘rganish uchun yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Tildagi shaxs boshlanmasining lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishi XX asrning 80- 90-yillariga kelib inson nazariyasining umumiy makonda yaratilgan va yaratilayotgan matnlarda o‘zini namoyon etuvchi, shu bilan birgalikda dunyo manzarasi, dunyoning til manzarasi, dunyoning til-muallif manzarasi tushunchalarga oid til shaxsi sifatida shakllanishiga olib keldi.

Onim o‘zida insoniyatning eng qadimiy sirlari va jumboqlaridan birini namoyon etadi, chunki atoqli ismlar sohasida til qonuniyatlari alohida izohlanadi. Bundan tashqari atoqli ot jamiyat qiziqishlaridagi o‘zgarishlarga munosabat bildira oladigan va jamiyatda mavjud g‘oyalar va qarashlarni tegishli tarzda aks ettiruvchi o‘ziga xos madaniy, davriy, etnik belgi sifatida xizmat qiladi. U yoki bu tildagi atoqli otlar majmuasi aniq bir jamiyat tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo‘ladi, vakillari alohida jamiyatda yoki bir-biridan makon va zamon jihatdan uzoq yashovchi turli tillarida ayrim onimlar takrorlanishi mumkin. (qiyoslang: Marat – buyuk Fransuz inqilobi davrida mashhur tarixiy shaxs ismi va qozoq, tatar tilidagi erkaklar ismi, Barak – Amerika prezidentining ismi, yaxudiylar ismi va qozoq sultonining ismi). Bu kabi bir xilliklar (mos kelishlar) turli sabablar – tasodifiy mosliklardan tortib qandaydir shaxs yoki voqea sharafiga ataylab qo‘yilgan nom bilan izohlanishi mumkin.

Onomastikonlarni o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolardan biri – bu ularning leksik ma’nosi bilan bog‘liq muammodir. Bugungi kunga qadar qancha bahslar bo‘lsa, shuncha fikrlar saqlanib qolmoqda. Onomastik birliklarning ma’nosi muammosi bo‘yicha xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni uchta asosiy guruhga – asemantiklik, ya’ni onimlarning ma’nosi yo‘q degan nuqtai nazar, semantiklik, ya’ni onimlar keng ma’noga ega degan nuqtai nazar va ikkalasining ham xususiyatlarini birlashtirgan, go‘yoki birinchi va ikkinchi nuqtai nazarlarni ”yarashtiradigan” nuqtai nazarga ajaratish mumkin.

Birinchi konsepsiyaga ko‘ra, onimlar doimiy tushunchalar signifikatlarning ifodalanishi bilan hech qanaqa tarzda bog‘lanmaydi, onim hech narsani anglatmaydi, chunki atoqli otga ega bo‘lgan obyektning xususiyatlari to‘g‘risida hech narsa aytmaydi, faqat mos keladigan boshqa onimlar orasidan uni ajratadi. Onimlar doimiy tushunchalarni ifodalash bilan bog‘liq emas va anglatayotgan predmetlari haqida axborot tashishga qodir emas. Hozirgi kunda ushbu yondashuv tanqidiy baholanmoqda, masalan, D.I.Rudenko o‘z asarlaridan birida ta’kidlaydiki, “bema’ni otlar” deb nomlanadigan mantiqiy kategoriya tilda qo‘llanishi mumkin emas, chunki “bema’ni ot” tabiiy til maqomiga ega bo‘lmaydi.

Ikkinchi yo‘nalish onim faqat nutqda, maxsus tanlangan nutq qurshovida va alohida nutq muhitida qo‘llangan paytdagina to‘liq ma’noga ega bo‘lishi mumkinligiga asoslanadi. Ayrim xorij tilshunoslarining fikricha, onomastik semantika – semantikaning batamom maxsus turi bo‘lib,

subyektiv, ijtimoiy shartlangan omillar ham, referent so‘zlovchida paydo qiladigan hissiyotlar ham ism semantikasiga kiradi.

Uchinchi yo‘nalish tarafdorlari tilda ham, nutqda ham ism ma’nosining mavjudligini da’vo qiladi [Kleiber. 1992; Ducrot. 1989; Damourette. 1970**]**. Fransuz tilshunoslari P.Siblo va S.Lerua, atoqli otlardan yasalgan nomlarni yoki neologizmlarni yaratish borasidagi empirik kuzatuvlar asosida, atoqli otlar nutqda hamda asosiy ma’nodan chetga chiqib qo‘llanganda ma’no hosil qilish qobiliyatiga ega degan xulosaga kelishadi: semantik maydon bo‘lmaganda, turg‘un semalar vositasida atoqli otning ifodalanmishini tasvirlab bo‘lmaydi. [Siblot, Leroy. 2000:91]. V.V.Vorobyovning fikricha, atoqli otlar ma’noning denotativ, signifikativ va struktur komponentlaridan iborat bo‘lgan semantik tarkibga ega. [Воробьёв. 2008].

Keltirilgan nazariy tahlillarga ko‘ra kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarda, birinchidan, bir-birlariga o‘xshash jihatlarni namoyon qiladi, ya’ni tilni o‘rganishda integrativ yondashuv, “til – inson” va “inson – til” diadasiga maksimal diqqat e’tibor qaratilsa, konseptlar va olam manzarasi muammolari tadqiq qilinsa, ikkinchidan, bu tushunchalar har ikkala fanda turlicha talqin qilinishi ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2000. – 624 с.

2. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Москва: Изд. РУДН, 2008. – 340 с.

3. Руденко Д. И. Собственные имена в контексте современных теорий референции // Вопросы языкознания. – 1988. - No3. – С. 55–68.

4. Siblot Paul, Leroy Sarah. L'antonomase entre nom propre et catégorisation nominale//Mots. Les langages du politique Année, 2000. 63 pp. 89-104